

O'SPIRIN BOKSCHILARNING SPORT YUTUQLARI NATIJASIDA  
ERISHGAN TOIFALARIDA MOTIVATSIYANING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI

Nazarova Zilola Xayrullayevna

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*“Sport psixologiyasi va pedagogika” kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola. Yakkakurash sport turlaridan biri bo'lgan boks sportida yutuqlarga erishib kelayotgan bokschilarimiz va ularning 6 toifada qanday motivatsion xususiyatga ega bo'lsa, muvaffaqiyatga erishishi yuqori bo'lishi to'g'risida*

**Kalit so'z:** Motivatsiya, muvaffaqiyat, daraja, frustratsiya.

Ilmiy tadqiqot ishimizda 257 nafar sinaluvchilarning sportdagi qaysi toifada motivatsiya holati qay darajada o'zgarishi, past yoki baland bo'lishini o'rgandik. Inson o'zi tanlagan sohasida bosqichma bosqich motivatsiya kuchi unumдорлиги natijasida yutuqlarga erishib kelaverгach qaysidur nuqtada to'xtalish holatlari juda ko'п insonlarda sodir bo'ladi. Bokschalar yosh yigit-qizlarimizda ham aynan shu holatni tekshirib ko'rish fikrida spss dasturida metodikalar natijalari matematik-statesti tahlil etilib, qo'yidagi natjalarga erishildi [1]

**1.- Jadval**

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi asosida sportchilarning erishgan toifalari bo'yicha ishonchli farqlar (Kruskal Uollis H - mezioni asosida n=257)

Ko'rsatkic h	O'rtacha qiymat						H	p
	3 toifa (n=4 6)	2 toifa (n=4 9)	1 toifa (n=61 )	sport ustaligi ga nomzod (n=37)	sport ustas i (n=4 1)	Xalqaro toifadagi sport ustasi (n=23)		
Muvaffaqi yatga erishish motivat siyasi	88,59	106,7 8	106,9 8	162,31	171,3 8	<b>186,46</b>	58,48 8	<b>0,000**</b> *

*Izoh: \*\*\*p<0,001.*

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi shkalasi bo'yicha sportchilarning toifalaridagi ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. ( $H=58,488$ ;  $p<0,001$ ) 3 toifa egasi bo'lgan bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi past ekanligi aniqlandi, xalqaro toifadagi sport ustalarida esa muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi boshqa toifa ya'ni sport ustaligiga nomzod, sport ustalaridagi sportchilarga nisbatan bir muncha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek 3 toifaga erishgan sportchilarimiz hali tumanlararo musobaqalarda qatnashgan va 1 o'rin sohibi va sohibasi bo'lgan bokschilar bo'lib, endi sportning yutuqlarini his etishni boshlagan ammo boks sport turi bilan uzlusiz mashg'ul bo'lish bo'lmaslik haqida bu bosqichda bokschi qizlar va yigitlarimiz orasida o'ylantirayotgan holatlar bo'ladi. Xalqaro toifadagi sport ustasi bo'lgan, boksning ko'p zinalarini bosib o'tgan, malaka va ko'nikmalari shakllangan, jahon va osiyo jimpionatlari janglarida qatnashib, g'oliblik suppasing naqadar g'ururbaxsh hissini his etgan va shu bilan birga erishgan yutuqlarini bardavom bo'lishligi hamda mag'lubiyat emas balki muvaffaqiyatni ushlab qolishga harakatda bo'ladigan bokschilarimiz hisoblanadi.

Ayni paytda bizning tatqiqot ishimizda 1-va 2-toifaga ega bo'lgan sportchilarimizda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi bir-biriga yaqin motivatsion holatni o'xhash natijalarni namoyon etishgan.

Sport ustaligiga nomzodlik toifasidagi bokschilarimizda sport ustasi toifasidan ozroq pastroq motivatsiya ammo 1,2,3 - toifadagi bokschilarimizdan ancha yuqori motivatsiyani ko'rishimiz mumkin. Sport ustasida ham xalqaro toifadagi sport ustasining motivatsiya holatiga yaqin natija namoyon bo'lgan.

Krusskal Uollis mezoni bo'yicha mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi hamda Shobaltasning "Sport bilan shug'ullashish motivi" metodikalarida, bokschilarning toifalari bo'yicha o'rganilganda ishonch darjasini tafovutlari kuzatilmadi. Shuning uchun "Sport bilan shug'ullashish motivi" metodikasi natijalarini 8-ilovada ko'rsatib o'tdik.

## 2-Jadval

**Gerbachevskiy so'rovnomasi asosida sportchilarning erishgan toifalari bo'yicha ishonchli farqlar (Krusskal Uollis H - mezoni asosida n=257)**

Shkalalar	O'rtacha qiymat							H	p
	3 toifa (n=46 )	2 toifa (n=49 )	1 toifa (n=61 )	sport ustaligi ga nomzod	sport ustas i (n=41 )	Xalqaro toifadagi sport ustasi			

				(n=37)	)	(n=23)		
Ichki motiv	95,14	108,89	119,3 5	130,01	172,2 7	186,39	41,96 3	<b>0,000** *</b>
Bilish motivi	119,1 4	109,86	122,7 8	136,99	159,4 4	138,89	12,26 0	<b>0,031*</b>
Qochish motivi	129,3 2	138,79	153,4 4	108,41	111,0 9	107,76	14,61 4	<b>0,012*</b>
Musobaqalas huv motivi	102,8 9	123,98	124,7 5	140,73	142,9 3	159,50	12,41 0	<b>0,030*</b>
O'zini e'zozlash motivi	116,6 6	107,53	105,5 2	145,16	162,2 1	169,24	27,17 1	<b>0,000** *</b>

*Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01; \*\*\*p<0,001*

V. Gerbachevskiy so'rovnomasining 15ta shkalasi bo'yicha olingan natijalarimiz tahliliga ko'ra 1-shkala yani ichki motiv bo'yicha sportchilarning toifalaridagi ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. ( $H=41,963$ ;  $p<0,001$ ) Unga ko'ra Yigit qizlarimizning 3 toifa egasi bo'lgan bokschilarda ichki motiv past ekanligini, xalqaro toifadagi sport ustalarida esa ushbu shkala ya'ni ichki motiv yuqori ekanligi kuzatildi. Yuqoridagi Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasida ham huddi shu ko'rsatkichlar namoyon bo'lgan edi. Motivatsiya ichki undovchi kuch sifatida izohlanishi hammamizga ayon. Ushbu ikkala metodika shkalalari natijalari ham shuni izohlab turibdiki, ichki motiv yuqori bo'lishi, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini ham yuqori bo'lishi bilan baholanishi mumkin. Qolgan 2 - toifa, 1 - toifa, sport ustaligiga nomzod, sport ustasi toifalari ketma ketligida ichki motiv kuchi yuqorilab borganini ko'rishimiz mumkin.

Bilish motivi shkalasi natijalariga ko'ra ishonchli tafovut darajasi kuzatildi ( $H=12,260$ ;  $p<0,05$ ) Unga ko'ra 2 - toifaga ega bo'lgan bokschilarda past natija, sport ustalarida esa bilish motivi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Sportga kirib kelgan har bir yosh avlod sport sirlarini bilishga intilishi bir muncha kuchli bo'ladi buni 3 -toifani qo'lga kiritgan sportchilar bilan 2 - toifa sportchilar natijalarini qiyoslaganda ko'rish mumkin. Sekin orada bilganlari ustida muntazam shug'ullanishi natijasida men bilaman, bilib oldim, shu uslubda ketaveraman degan tushunchalar 2 - toifaga chiqqach namoyon bo'la

boshlaydi ammo trenerlarimizning bosqichma-bosqich beradigan bilim, ko'nikma, malaka va uslublarini o'rgana boshlagan bokschida yanada sport sirlarini bilishga bo'lgan qiziqishlari va xulosalari o'zgarishi natijasida 1 – toifa va boshqa toifalarga zinama-zina ko'tarilish davrida turli bilimlarni egallashi sababli o'zgara boradi.

Qochish motivi shkalasi bo'yicha ham ishonchli tafovutlar kuzatildi ( $H=14,614$ ;  $p<0,05$ ) Ushbu shkala bo'yicha natijalar shuni ko'rsatadiki, bokschilarimizning toifalar bo'yicha turli ko'rsatkichlar namoyon bo'ldi. Natijalarni past bo'lishi va qoniqmaslikni keltirib chiqarishdan qochish motivi xalqaro toifadagi sport ustalarida past birinchi toifadagi bokschilarda esa yuqori bo'lganini ko'rish mumkin. Boksda o'zining o'rniga ega bo'lgan, bilim va ko'nikmalari malakaga aylangan xalqaro toifadagi sport ustalariga natijalarini past bo'lishidan qochish motivining past bo'lishi tabiiy negaki muvaffaqiyatga bir necha bor erishgan bu bokschini yigit qizlarimiz o'ziga ishonchi va yillar davomida to'plagan sport bilimlarini to'g'ri qo'llay olish qobiliyati bilan muvaffaqiyat haqida o'ylash kuchli bo'lganligi sababli bu shkala past chiqqanligini kuzatish mumkin. Birinchi toifaga erishgan bokschilarimiz qochish motivi yuqoriligi oldinda yana eng asosiy toifalarga erishish kerakligi yotadi zamirida. Chunki natijalarni pastga tushirib yuvormasdan ushlab tura olish va yuqorilash o'ta ma'suliyat kasb etadi. Sport ustaligiga nomzod va sport ustalarida ham xalqaro taoifadagi sport ustasining ko'rsatkichlariga yaqin natijalar namoyon bo'ldi. Ikkinci toifadan uchunchi toifaga ega bokschilarimizning natijalari past bo'lganini hamda bunga izoh sifatida uchunchi toifaga ega sportchilarimizning boksdagi g'alabalari, muvaffaqiyatlari boshlang'ich bosqichda ekanligi bilan sharxlashimiz mumkin. Ular natijalarini past bo'lishidan emas balki natijaga erishayotgani bilan ko'proq qiziqish bo'ladi.

Musobaqalashuv motivi shkalasida ham ishonchli tafovutlar bor ekanligi ma'lum bo'ldi ( $H=12,410$ ;  $p<0,05$ ). Ushbu shkala bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasidagi bokschilarda yuqori ekanligi, 3 – toifa bokschilarida musobaqalashuv motivi past ekanligi namoyon bo'ldi. 2 – toifa, 1 – toifa, sport ustaligiga nomzod, sport ustasi, xalqaro toifadagi sport ustalari ketma-ketligida musobaqalashuv motivini yuqorilab borganini ko'rish mumkin. V. Gerbachevskiy so'rovnomasini qolgan shkalalar bo'yicha ham bokschilar toifalarida tafovutlar mavjud.

Natijalarning ahamiyatliligi, vazifalarning murakkabligi, natjalarga erishganlik darajasining bahosi motivlarida ishonchli farqlar bo'lmadi.

O'zini e'zozlash motivi shkalasida ham ishonchli tafovutlar bor ekanligi ma'lum bo'ldi ( $H=27,171$ ;  $p<0,001$ ). Bu shkalaning 3 – toifa bokschilarida o'zini

e'zozlash motivi past darajada, xalqaro toifadagi sport ustalarida esa ushbu motiv kuchli darajada ekan. Demak, sport muvaffaqiyatining cho'qqisiga erishishgan bokschi yoshlarda o'z kuchi, irodasi va erishgan yutuqlari, o'ziga bo'lgan ishonch natijasida endi ushbu sportchida o'zini e'zozlash motivi ustunlikni namoyon etadi.

V.Gerbachevskiy so'rovnomasining qolgan to'rtta shkalasi ya'ni o'z imkoniyatlarini baholash, quvvatni safarbar eta olinganlik, faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi, tashabbuskorlik motivlarida farqlar mavjudligi yo'q.

Endi bokschilarda frustratsiya darajasidagi farqni tahlil etamiz. Bilamizki, qo'rquv insonni faoliyatidan cheklovchi omil sifatida gavdalanadi. Sportchilarimizning frustratsion holatini o'rganishimiz juda dolzarb vazifadir.

### **3-Jadval**

V.V.Boykaning “Frustratsiya darajasini aniqlash” metodikasi asosida sportchilarining erishgan toifalari bo'yicha ishonchli tofovutlar (Kruskal Uollis H - mezoni asosida n=257)

Ko'rsat kich	O'rtacha qiymat						H	p
	2 toifa (n=4 9)	1 toifa (n=61 )	sport ustaligi ga nomzod (n=37)	sport ustasi (n=41 )	Xalqaro toifadagi sport ustasi (n=23)			
Frustra tsiya darajas i	150,18	131,5 0	110,4 5	112,54	150,3 8	118,87	13,81 4	0,017 *

*Izoh: \*p<0,05;*

Bokschilarimizning sport faoliyatini olib borish jarayonida olti toifa egalarining frustratsion holatlarini ham diagnostik tahlil etdik. Frustratsiya darajasini aniqlash metodikasi bo'yicha ishonchli tafovutlar bor ekanligi ma'lum bo'ldi ( $H=13,814$ ;  $p<0,05$ ); Natijalarimizda ishonchli farqlar kuzatildi. Unga ko'ra frustratsiya holati sport ustasi darajasidagi bokschilarda yuqori, 1-toifa darajasidagi sportchilarda frustratsiya holati past darajada namoyon bo'lgan. Sport ustasining frustratsion holatini quyidagicha izohlash mumkin. Boksdagi eng yuqori daraja xalqaro toifadagi sport ustasi bo'lsa, shunga yetishiga bir qadam qolgan sport ustasi hisoblanadi. Albatta bu bosqichga yetib kelgan sportchida yana bir pog'ona cho'qqiga yetishishiga oz qolganini his

etgan sportchida har daqiqada hissiy qo‘rquvni his etish holati kuchayib boradi. Chunki sportchidan o‘zi erishgan yutiqni bir zailda ushlab turish ham, o‘sha pog‘anadan tepaga ko‘tarilish ham o‘ta ma‘suliyat hissini har doim talab etadi. Bizga ma'lumki, frustratsiya ma'lum maqsad yo‘lidagi mavjud mavhum to‘sislarni paydo bo‘lishiga nisbatan hosil bo‘ladigan muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat [2].

N.Z.Ismoilova - o‘zining ilmiy tadqiqot ishida stressga barqarorlikni oshirishda o‘ziga xos ta’sirga ega bo‘lgan shaxs xususiyatlaridan biri - bu frustratsiyaga nisbatan tolerantlikdir deya izoh keltirib o‘tadi [3]. Demakki, frustratsion holatga tushmaslikka harakat qilishlik inson har qanday sohada bo‘lmasin qurquvni yenga bilishi lozim.

Z.T.Nishonova tomonidan o‘smirlik davrida qo‘rquv holatining namoyon bo‘lishini o‘rganilib, uning sabab va oqibatlari tahlil etilgan [4].

S. Rozensveyg frustratsiya nazariyasini ishlab chiqqan hamda turli olimlar bu atamani turlicha nom ostida tilga olsalarda, umuman olganda frustratsiya insonning ma'lum bir maqsadga erishish yoki vazifani yechish yo‘lida sodir bo‘lgan yengib bo‘lmas yoki sub’ektiv jihatdan shunday deb qabul qilinadigan qiyinchiliklar natijasida yuzaga keladigan kechinmalar va xulk-atvorning namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xos xarakterli xolatlarni ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi [5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak biz har qanday faoliyatda bo‘lmaylik yutuqqa erishishga harakat qilamiz. Harakatlarimiz natijasini esa munosib bahosi bo‘lishi va qaysidur yuqori bosqichga ko‘tarilishimizni hohlaymiz. Boksda ham demak erishgan yutug‘lari natijasida shunday oltida toifa bor. Huddiki zina poyaning birinchisidan tepaga qadam bosib chiqib borgani kabi bunda ham shunaqa qadamlar bosiladi ammo bu yo‘lda inson ruhiyatida emotSIONAL holatlarning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lib boradi. Yani qo‘rquv, hayajon, maqsad sari intilishning kamayishi, asabiylilik shu va shu kabilar. Shu jarayonda inson qo‘rquv holatini yenga bilishi lozim. Shundagini harakat qilayotgan maqsadiga erishadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Muhammedova D.G, Salomova G.Sh “Psixologik tadqiqotlar ma'lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari” Darslik. Toshkent 2020. 407b.
2. Nazarova Z.X. “Bokschi o'g'il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili”. “Russian” “инновационные подходы в современной науке”. 2023.
3. Ismoilova N. “Talabalarda stressga barkarorlikni oshirishning psixologik determinantlari” 19.00.06. psix.f.bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. 2020.68.b.
4. Nishanova. Z.T., Tulyaganova Sh.T “O'smirlik davrida qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi” “O'quv uslubiy qo'llanma” T.:2009. 10b.
5. Розенсвейг С. «Психодиагностика». - М.: Наука, 2004. -388 с.